# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

6
2023

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ
**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari ......6
**Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li,** mustaqil izlanuvchi
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi ......11
**Karimova Nilufar,** tayanch doktarant
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan ......16
**Peng Xinge,** PhD Researcher
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari ......21
**Xotamov Ibodulla Sadullayevich,** i.f.n., professor, **Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li,** kafedra assistenti
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari ......28
**Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich,** PhD, katta o'qituvchi
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari ......31
**Azlarova Munira Muhammad Amin qizi,** tadqiqotchi
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective ......40
**Kuzikulova Dilfuza**
Qualitative functional development in industrial production ......49
**Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna,** TSUE, DSc, assistant professor
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati ......54
**Xamrayev Djamshid Panjiyevich,** mustaqil tadqiqotchi
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes ......61
**Eshbayev Oybek,** Department of English Language
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy ......68
**Rozikov Ravshan,** Department of English Language
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy ......76
**Kurbanova Nigina**, Department of English Language
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road ......85
**Kalonov Mukhiddin Bahritdinovich,** professor
**Shao Junling,** PhD student, researcher
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration ......90
**Zhao shenghan**
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati ......96
**Abduraximova Dilora Karimovna,** PhD
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari ......101
**Xasanxonova Nodira Isametdinovna,** PhD
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish ......107
**Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich,** kafedra assistent
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat ......112
**Kaxorova Anora Nusratovna,** kafedra assistenti
Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari ......118
**Qahramon Usmanovich Umidullayev,** yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari ......124
**Xamrayev Djamshid Panjiyevich,** mustaqil tadqiqotchisi
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish ......129
**Tulayev Mirzakul Salamovich,** dotsent
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari ......133
**Sh. B. Babayev,** dotsent; **M. R. Qulmetov,** dotsent
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari ......138
**G'aniyev Shahriddin Vohidovich**, professor, i. f. d. (DsC), **Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich**, i. f. f. d. (PhD)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS


Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики ........ 144
**Жиянова Наргиза Эсанбоена,** к.э.н., проф., **Азимжонова Малика Шавкат қизи,** специалист первой категории

To‘qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi ........ 150
**Yaxyayeva Inobat Karimovna,** dotsent, PhD

Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan ........ 154
**Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli**

“История экономических учений” как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов ........ 160
**Хакимов Назар Хакимович,** доктор философских наук, профессор

The importance of strategic management and strategic leadership ........ 166
**Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o‘g‘li**

Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development ........ 170
**Xasanova Zarina,** Department of English Language

Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tahlili ........ 178
**M. O. Hamroqulov,** katta o‘qituvchi

Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya ........ 185
**Farhod Bagibekovich Xalimbetov**

Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) ........ 188
**Saidov Nurali Rakhimovich**

Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region ........ 193
**S. M. Rakhimova**

Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров ........ 197
**Джурабаев Отабек Джурабаевич,** доцент

Soliq to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari ........ 204
**Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li,** talaba

Hayot sug‘urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni ........ 207
**Baratova Dinora Alisherovna,** katta o‘qituvchisi

Edge Computing texnologiyalari ........ 213
**Qulmatova S.**, PhD, katta o‘qituvchi; **Karimov Botir,** katta o‘qituvchi

Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati ........ 218
**Mamatov Bahromjon Shavkatovich,** PhD, dotsent

Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari ........ 223
**Odilova Sitora Sayfitdin qizi,** katta o‘qituvchi

Tomorqa xo‘jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko‘rsatkichlari ........ 228
**Saydullayeva Fotima Jozilovna,** assistent

O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati ........ 235
**Xasanov Xayrulla Nasrullayevich**

O‘zbekiston yoshlarida volontyorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba ........ 241
**Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich,** siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе ........ 247
**Оспан Айзада Бейсенқызы,** докторант 2 курса

Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili ........ 251
**Mirzoyev Feruz Mamurjonovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari ........ 259
**Abdualim Abdujabbor o‘g‘li Abdurazzoqov,** mustaqil tadqiqotchi

Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country’s economic growth ........ 267
**Rasulov Jamshid Shokir o‘g‘li**

Bank daromadlilik ko‘rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta’siri ........ 274
**Madraimov Xabibulla Madaminovich,** assistent o‘qituvchi

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari ........ 282
**Mamatov Mamajan Axmadjonovich,** i.f.n., dotsent
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash ........ 288
**Ergashova Nargiza Boboxonovna,** talaba
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari ........ 296
**Hakimjon Hakimov,** tadqiqotchi
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari ........ 301
**Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich,** dotsent
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati ........ 306
**Babadjanova Malika Ruzimovna,** assistent o'qituvchi
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli ........ 312
**Kamilov Baxramjon Umardjonovich**
Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim ........ 317
**Bekdavlat Aliyev,** professor, falsafa fanlari doktori
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari ........ 321
**O. T. Nurmatov,** PhD
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari ........ 327
**Abdullayev Suyun Artiqovich,** O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari ........ 335
**Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich,** mustaqil izlanuvchi
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari ........ 346
**Saidaxmedova Aida Mirzayevna,** katta o'qituvchi
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish ........ 352
**D. A. Azlarova,** PhD
The Intersection of Sustainability and Economic Development: Balancing Environment and Business Needs ........ 360
**Kholikova Rukhsora Sanjarovna,** PhD, **Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli,** student
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari ........ 364
**Zuhra Abdikarimova,** tayanch doktorant
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfelni shakllantirish ........ 370
**Sindarov Fazliddin Qahramonovich,** kafedra assistenti
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari ........ 376
**To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi,** assistent
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari ........ 381
**B. K. Tuxliyev,** professor
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida ........ 386
**Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi,** PhD
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida) ........ 391
**Aminboy Sa'dullayev,** i.f.n, dotsent, **Dilshod Vaisov,** magistr, **Farhod Egamberganov,** magistr
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish ........ 397
**Pardayev Jamshid Muzaffarovich,** tadqiqotchi
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari ........ 403
**Muxitdinova Kamola Alisherovna,** PhD
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction ........ 407
**Gafurov Olimjon,** teacher, **Kholmuminov Humoyun,** teacher, **Abrueva Sevinch,** student,
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики ........ 411
**Ф. Т. Абдувахидов,** доцент, **А. Ю. Нурмухаммедов,** доцент
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri ........ 417
**Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna,** dotsent
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan ........ 420
**Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli**

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

# BUDJET-SOLIQ VA PUL-KREDIT SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

**Hakimjon Hakimov**
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish masalalariga nazariy yondashuvlarning umumiy talqini va tahlili keltirilgan. Tadqiqot ishining asosiy e'tibori iqtisodiy siyosatning ushbu ikki eng muhim jihatning aloqadorligi va o'zaro ta'sir mexanizmlari bilan bog'liqligi tushuntirilgan. Shuningdek, ularning barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi rolini o'rganishga qaratilgani talqin qilingan. Biz maqolada ushbu sohada taqdim etilgan turli nazariy modellar va tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz hamda ularning bugungi iqtisodiyotda qo'llanilishi samaradorligini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: makroiqtisodiy tartibga solish, moliyaviy barqarorlik, siyosatni muvofiqlashtirish, fiskal siyosat, monetar siyosat, inflyatsiyani targetlash, davlat qarzi, budjet taqchilligi.

Abstract: the article provides a general interpretation and analysis of theoretical approaches to the coordination of budget-tax and monetary policy. It is explained that the main focus of the research work is the relationship between these two most important aspects of economic policy and the mechanisms of interaction. It is also interpreted as aimed at studying their role in ensuring stability and economic development. In this article, we will review various theoretical models and studies presented in this field and analyze their effectiveness in today's economy.

Key words: macroeconomic regulation, financial stability, policy coordination, fiscal policy, monetary policy, inflation targeting, public debt, budget deficit.

Аннотация: в статье дается общая трактовка и анализ теоретических подходов к согласованию бюджетно-налоговой и денежно-кредитной политики. Объясняется, что в центре внимания исследовательской работы находится взаимосвязь между этими двумя важнейшими аспектами экономической политики и механизмы взаимодействия. Он также трактуется как направленный на изучение их роли в обеспечении стабильности и экономического развития. В этой статье мы рассмотрим различные теоретические модели и исследования, представленные в этой области, и проанализируем их эффективность в современной экономике.

Ключевые слова: макроэкономическое регулирование, финансовая стабильность, координация политик, фискальная политика, монетарная политика, инфляционное целеполагание, общественный долг, дефицит бюджета.

## KIRISH

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashda budjet-soliq va pul-kredit siyosatining samarali o'zaro hamkorligi asosiy o'rin tutadi. Fiskal siyosat soliqlar va davlat xarajatlarini tartibga solish uchun javob bersa, monetar siyosat pul muomalasi va kreditlash parametrlarini belgilaydi. Ularni muvofiqlashtirish ularning aloqadorligi va o'zaro ta'sirini chuqur tushunishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" gi 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son Farmonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy bankiga muvofiqlashtirilgan monetar-fiskal va monopoliyaga qarshi siyosat yuritish vazifasi qo'yilgan [1].

Mamlakatimizda monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish bilan bog'liq yuqorida belgilangan vazifalar yurtimizda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish zarurati mavjudligini ko'rsamoqda.

Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish masalalari uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilarning diqqat e'tiborida. Biroq, bu masala bo'yicha umumiy qabul qilingan yondashuv hali ham mavjud emas. Asosiy nazariy yondashuvlar, odatda, ushbu ikki turdagi siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni nazarda tutadigan modellarga asoslanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu sohada turli xil nazariy yondashuvlarni ifodalovchi ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Iqtisodchilar Hyeongwoo Kim, Peng Shao va Shuwei Zhang (2023) larning “Policy coordination and the effectiveness of fiscal stimulus” nomli maqolasida AQShda fiskal va monetar siyosat oʻrtasidagi muvofiqlashtirish masalasi isteʼmolchi kayfiyati (hissiyot) kanali bilan bogʻliq holda tadqiq etiladi. Mufalliflar yaxshi muvofiqlashtirilgan fiskal va monetar siyosat orqali davlat xarajatlaridagi ijobiy oʻzgarishlarga javoban yalpi ichki mahsulotning real oʻsishini yuqori, biroq, pul-kredit organlari fiskal ragʻbatlantirishga zid boʻlgan yanada cheklovchi pozitsiyani egallaganlarida, real YaIMga taʼsir past (oʻsish past) boʻlishini aniqlaydilar. Ushbu siyosatlarning mos kelmasligi isteʼmolchilarning pessimizmiga olib kelishi, xususiy xarajatlarni qisqartirib, oxir-oqibatda fiskal siyosatning umumiy taʼsirini zaiflashtirishini statistik testlar asosida tasdiqlaydilar [2].

Iqtisodchilar Jeong-Yoo Kim va Hyung Sun Choilar (2023) oʻzlarining “Monetary policy, fiscal policy and cross signal jamming” nomli maqolasida markaziy bank va hukumat shaxsiy maʼlumotlarni oʻzaro almashgan, lekin inflyatsiya va ishlab chiqarish hajmiga nisbatan har xil afzalliklarga ega boʻlgan hollarda qoidalarga asoslangan va ixtiyoriy (diskret) vakolatlar oʻrtasidagi tanlov muammosini oʻrganadi. Ularning fikricha, agar pul-kredit siyosati qoidalarga asoslangan boʻlsa, intuitiv mezon yagona ajratuvchi muvozanatni taʼminlaydi, bunda markaziy bank past foiz stavkasi orqali past taklif shoki haqida signal beradi. Ajablanarlisi shundaki, toʻliq maʼlumot mavjud boʻlmagan sharoitda ixtiyoriylik (diskretlik) markaziy bank uchun qoidaga asoslanishdan yaxshiroq boʻlishi mumkin. Shuningdek, maqolada axborot assimetriyasining fiskal va monetar siyosat kombinatsiyasiga qanday taʼsir qilishini tahlil qilinadi. Muvozanat holatda monetar va fiskal organlar bir-birining salbiy signallarini toʻxtata olmasligi aniqlanadi [3].

Iqtisodchilar Michael Woodford va Yinxi Xielarning (2022) “Fiscal and monetary stabilization policy at the zero lower bound: Consequences of limited foresight” nomli maqolasi foiz stavkalari allaqachon juda past boʻlgan va anʼanaviy pul-kredit siyosati unchalik samarali boʻlmaganda iqtisodiyotni qanday barqarorlashtirishni oʻrganadi. Bu istemolchilarning oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatining cheklanganligini hisobga oladi. Maqolad iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun iqtisodiy tanazzul davrida davlat transfertlari (kontratsiklik fiskal transfertlar) dan foydalanish gʻoyasini alohida koʻrib chiqiladi. Mualliflarning fikricha, bu transferlar inqirozning salbiy taʼsirini kamaytirish uchun kuchli vosita boʻlishi mumkin va hatto past foiz stavkalari cheklanishiga qaramay, muayyan sharoitlarda ishlab chiqarish va inflyatsiya nuqtayi nazaridan iqtisodiyotni toʻliq barqarorlashtirishi mumkin. Biroq, bu siyosatlarning muvaffaqiyati markaziy bankning pul-kredit siyosatini qanchalik oʻzgartirishga tayyorligiga bogʻliq. Shuningdek, maqolada markaziy bank ham, hukumat ham dastlabki moliyaviy buzilishlar oʻtib ketganidan keyin oʻtmishdagi voqealarni hisobga olgan holda siyosat olib borsa, umumiy farovonlik uchun yaxshi ekanligi taʼkidlangan [4].

Olim John H. Cochranening (2022) “A fiscal theory of monetary policy with partially-repaid long-term debt” nomli maqolasida qatʼiy narxlar, target foiz stavkalari va narx darajasining fiskal nazariyasini birlashtirgan asosiy (tayanch) model ishlab chiqiladi. Model uzoq muddatli qarzlar hamda fiskal va monetar siyosat qoidalarini oʻz ichiga oladi. Modelga koʻra, taqchillik mavjud boʻlganda, qarzni toʻlash uchun fiskal profitsit keyinchalik koʻpayadi. Biroq, profitsit kutilmagan inflyatsiya yoki deflyatsiyaning barcha darajalariga taʼsir qilmaydi. Muallif fikricha, ushbu model odatiy muammolardan qochadi va fiskal va monetar siyosat oʻzgartirilganda oqilona natijalar beradi. U har qanday yangi Keynscha (new-Keynesian) modelni osongina qoʻllash va faol fiskal siyosat bilan keng koʻlamli ssenariylarni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishga boʻlgan yondashuvni izohlovchi asosiy sabablar tahlil va taqqoslash metodlari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish va axborot sintezi usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, maqolada modellashtirish, maʼlumotlarni tahlil qilish va empirik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Iqtisodiy siyosat oldiga belgilab qoʻyilgan barqaror iqtisodiy oʻsishdek asosiy maqsadlarga erishish uchun narxlar barqarorligi va toʻlov balansining barqarorligini taʼminlash kerak.

Pul-kredit va budjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirishni amalga oshirishda toʻgʻri qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu siyosatlarning har birida qoʻllanilgan chora-tadbirlar yakunda iqtisodiy faollikka oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Shuning uchun bu siyosatlarning muvofiqlashtirilmasligi moliyaviy berqarorlikka olib keladi, foiz stavkalarining ortishi, valyuta kursi nomutanosibligi, inflyatsiya surʼatining oshishi kuzatiladi, nihoyat bu iqtisodiy oʻsishga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Umuman olganda, pul-kredit va budjet-soliq siyosatining strategik darajasi Markaziy bank va hukumat tomonidan amalga oshirilgan maqsadlarning umumiyligi bilan bogʻliq.

Bunday maqsadlar iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish (ishsizlikni kamaytirish), inflyatsiyani pasaytirish, davlat qarzining barqarorligi, valyuta kursining barqarorligi (va umuman moliya bozori) ni oʻz ichiga olishi mumkin.

Shunday qilib, iqtisodiy siyosat yo‘nalishining maqsadi – bu vositalarning muvofiq kombinatsiyasi bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilish, ya’ni ushbu siyosatlarning muvofiqlashtirilishi umumiy iqtisodiy siyosatning ta’siri uchun muhim ahamiyatga ega. Bu shuni anglatadiki, nomutanosib va muvofiqlashtirilmagan siyosat aralashuvi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib keladi, natijada bu muvofiqlashtirish muhimligini qat’iy tasdiqlaydi (1-rasm).




1 - r a s m: Fiskal va monetar siyosatning umumiy maqsadlari va amalga oshirish mexanizmi

Manba: Nazariy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish bo‘yicha eng keng tarqalgan nazariy yondashuvlardan biri optimal muvofiqlashtirish nazariyasi bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanishning optimal darajasi konsepsiyasiga asoslanadi va iqtisodiyotning maksimal samaradorligiga erishish uchun davlat budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish zarurligini taklif qiladi.

Ushbu yondashuv doirasida davlat xarajatlarining optimal darajasini, soliq yukini, kredit stavkalarini, budjet-soliq va pul-kredit siyosatining boshqa parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi modellar ishlab chiqilgan.

Yana bir keng tarqalgan yondashuv bozor nomukammalligi nazariyasi bo‘lib, u bozor nomukammalligining mavjudligi va ularning fiskal va monetar siyosatning samaradorligiga ta’sirini hisobga oladi. Ushbu yondashuv doirasida nomukammal bozorlarda fiskal va monetar siyosatning optimal parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi modellar ishlab chiqilgan.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1 - j a d v a l: Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlar

| Mavjud yondashuvlar | Yondashuv mazmuni | Vakillari |
|---|---|---|
| Optimal muvofiqlashtirish nazariyasi | Davlat budjet-soliq va pul-kredit siyosatini iqtisodiy rivojlanishning optimal darajasini ta'minlaydigan tarzda olib borishi zarurligini ko'rsatadi | R. Barro, R. Gordon, R. Lukas |
| Bozor nomukammalligi nazariyasi | Bozorlarda samarasiz natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan turli nomukammalliklar mavjudligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvning bir qismi sifatida fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun nomukammal bozor modellari ishlab chiqilgan. | J. Stiglis, P. Krugman, O. Blanchard |
| O'yinlar nazariyasi | Davlat va xususiy sektor bozorda o'zaro ta'sir qiladi va strategiyalar asosida qarorlar qabul qiladi. Ushbu yondashuv doirasida fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'sirini baholash imkonini beruvchi o'yin modellari ishlab chiqilgan | R. Kuper, D. Kryuger, J. Tirni |
| Yangi klassik sintez (Neoclassical synthesis) | Hukumat budjet-soliq va pul-kredit siyosatini barqaror inflyatsiya va past ishsizlik darajasini ta'minlaydigan tarzda olib borishi zarurligi ta'kidlangan | M. Fridman, R. Lukas, T. Sargent |

Manba: www.sciencedirect.com ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Fiskal va monetar siyosatini muvofiqlashtirishning uchinchi yondashuvi bozorda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni modellashtiruvchi o'yinlar nazariyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvning bir qismi sifatida bozor ishtirokchilarining o'zaro ta'siri sharoitida fiskal va monetar siyosatning optimal strategiyalarini aniqlash imkonini beruvchi modellar ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish masalalari dolzarb bo'lib, tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilishda davom etmoqda. Shuni hisobga olish kerakki, nazariy yondashuvlarning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va yondashuvni tanlash davlat oldida turgan aniq shartlar va vazifalarga bog'liq. Mavjud yondashuvlar asosida shakllangan modellarni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin.

IS-LM modeli. IS-LM modeli fiskal va monetar siyosat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan klassik nazariy modellardan biridir. U investitsiyalar va jamg'armalarning (IS -egri chizig'i) va pulga talab va taklifning (LM -egri chizig'i) o'zaro ta'siriga asoslanadi. IS-LM modeli fiskal va monetar siyosatdagi o'zgarishlarning iqtisodiyotdagi daromadlar darajasi va foiz stavkasiga ta'sirini baholaydi.

Yangi klassik sintez modeli. Yangi klassik sintez modeli IS-LM modelining ishlanmasi bo'lib, agentlarning taxminlari va oqilona bozor xatti-harakatlarini hisobga oladi. Ushbu model agentlar kelajakdagi siyosat o'zgarishlari haqida mavjud ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra, fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish prognoz qilinadigan va izchil bo'lishi kerak, shunda agentlar moslashishi va oqilona qarorlar qabul qilishi mumkin.

Kengaytirilgan yalpi talab modeli. Bu model iqtisodiyotdagi yalpi talabga davlat xarajatlari, soliqlar va pul taklifining ta'sirini hisobga oladi. U fiskal va monetar siyosatdagi o'zgarishlarning iqtisodiy faollik va inflyatsiyaga ta'sirini hisoblaydi.

Pul-kredit transmissiyasi modeli. Ushbu model pul-kredit siyosatini real iqtisodiyotga o'tkazish (transmissiya) mexanizmlarini ko'rib chiqadi. U pul massasi, foiz stavkalari va kredit shartlarining investitsiyalar, iste'mol hamda tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabga ta'sirini hisobga oladi.




2 - r a s m: Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning tayanch modellari



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Dinamik stoxastik umumiy muvozanat (DSGE) modeli. DSGE modeli iqtisodiyotdagi dinamik va stoxastik shoklarni hisobga oladigan murakkab makroiqtisodiy modeldir. U budjet-soliq va pul-kredit siyosatidagi oʻzgarishlarning iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tendensiyalar va tebranishlarga ta'sirini tahlil qilishi mumkin.

Mavjud yondashuvlarni hisobga olgan holda qisqa va uzoq muddatda muvofiqlashtirish ikki bosqichda boʻlishi kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Qisqa muddatda narx-navoning barqarorligiga erishish va muvofiqlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish jarayoni amalga oshiriladi, bu yerda pul-kredit siyosati va davlat qarzini toʻgʻri boshqarishga alohida e'tibor qaratiladi.

Boshqa tomondan, uzoq muddat davomida iqtisodiyotning muvozanat darajasiga erishishning muhim sharti boʻlgan barqaror iqtisodiy oʻsishga asos boʻluvchi muvofiq siyosatni shakllantirish kerak, agar ushbu davrdagi fiskal defitsitning darajasi markaziy bank tomonidan monetizatsiya qilinishi kerak boʻlsa va davlat tashqi qarzining barqaror oʻsishiga olib kelsa, u albatta oldindan belgilab qoʻyilishi shart.

Tadqiqotlar natijalariga koʻra, milliy va xorijiy amaliyotni hisobga olib, fiskal va monetar siyosatlarni muvofiqlashtirish mexanizmlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: huquqiy mexanizmlar, moliyaviy mexanizmlar va iqtisodiy mexanizmlar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Pul-kredit va budjet-soliq siyosatlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning asosiy yoʻnalishi budjet kamomadini moliyalashtirish va pul-kredit sohasini boshqarish hisoblanadi. Pul-kredit siyosati qanday amalga oshirilayotgani, hukumatning budjet taqchilligini (defitsiti) moliyalash qobiliyati bilan bogʻliq, chunki bu qarzga xizmat koʻrsatish xarajatlari miqdoriga ta'sir qiladi, shuningdek, mavjud moliyalashtirish manbalarini cheklashiga yoki kengaytirishiga olib keladi. Boshqa tomondan esa, hukumatning moliyaviy ehtiyojlari va uni moliyalashtirish strategiyasi pul-kredit organining operativ mustaqillik chegaralarini belgilaydi.

Shunday qilib, pul-kredit va budjet-soliq siyosati oʻrtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish maqsadida amalga oshirilishi kerak boʻlgan bir nechta turli tavsiya va tadbirlarni ajratib koʻrsatish mumkin:

- markaziy bankning institutsional mustaqillikka erishish uchun chora-tadbirlari;
- nizolarning oldini olish va hal qilish choralari;
- markaziy bankning mamlakatga bevosita kreditlarini cheklovchi tadbirlar;
- muvozanatli budjet yoki defitsit cheklovlari uchun tadbirlar;
- erkin valyuta ayirboshlashni qoʻllab-quvvatlash.

Mamlakatda moliya bozorlarining rivojlanganligi pul-kredit siyosatini yuritish va davlat xarajatlarini boshqarish metodlarini mukammallashtirish (yuksaltirish)da qoʻshimcha imkoniyatlarni yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich oʻtish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish toʻgʻrisida" gi 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).
2. Hyeongwoo Kim, Peng Shao, and Shuwei Zhang., 2023. Policy coordination and the effectiveness of fiscal stimulus. Journal of Macroeconomics, Volume 75, https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2022.103489.
3. Jeong-Yoo Kim and Hyung Sun Choi., 2023. Monetary policy, fiscal policy and cross signal jamming. Journal of Macroeconomics, Volume 75, https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2022.103500.
4. Michael Woodford and Yinxi Xie., 2022. Fiscal and monetary stabilization policy at the zero lower bound: Consequences of limited foresight. Journal of Monetary Economics, Volume 125, pages 18-35, https://doi.org/10.1016/j.jmoneco.2021.11.003.
5. John H. Cochrane., 2022. A fiscal theory of monetary policy with partially-repaid long-term debt. Review of Economic Dynamics, Volume 45, pages 1-21, https://doi.org/10.1016/j.red.2021.06.001.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2023. № 6

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL:  30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi 26-uy.